To'rabekov Sohijon Sherboy o'g'li	
Yashil energitikasi integratsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishning zamonaviy usuli (aqlli tarmoqlar-smart grids)	1007
Karimova Salima Elamonovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida soliqlarni raqamlashtirishni takomillashtirish	1012
Jo'rayev Botir Abdiyevich	
Yashil iqtisodiyotda tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish samaradorligi (TEM ko'rsatkichlar izohi)	1018
Sharifova Nargiza Djurayevna	
Экономическое образование молодёжи основа будущего страны.....	1023
Айматова Фарида, Айтиниязова Наргиза	
Biznes turizmining bugungi kundagi rivojlanish tendensiyasi.....	1028
Yangiyeva Sabrina Ixtiyorovna, Daniyarova Feruza Bahriddinovna	
Особенности кредитования сельскохозяйственных организаций и этапы его развития.....	1032
Ж.Я.Нуриллаев	
Xorijiy tajriba asosida O'zbekiston yashil iqtisodiyotini takomillashtirish yo'llari.....	1039
Xikmatova Husnora Fatxulla qizi	
Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli	1045
Umarov Muzaffar Yusupbayevich, Otamurodov Rasulbek Batirovich, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Atadjanov Kadambay Sapayevich	
Mintaqada raqamli transformatsiya rivojlanishida moliyaviy texnologiyalarning ahamiyati.....	1052
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Tijorat banklaridan olingan kreditni qaytarishda foiz stavkalari ta'sirining tahlili.....	1058
Xanmuratov Roushenbek Xalmuxammetovich, Vaxabov.A.V	
Tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri va yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish bosqichlari.....	1066
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B taqsimotida chakana savdo tarmoqlari bilan marketing asosidagi strategik hamkorlik	1071
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Мировой финансовый кризис и его влияния на состояние экономики Узбекистана	1076
Раупова Мхлисахон Ибрахимжон кизи	
Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	1087
Hakimov Faxritdin Abdusattorovich	
O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	1093
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	



Yo'l qurilish tashkilotlarida yo'l qurilish ko'lamini oshirib, samarali resurslar taqsimotini ishlab chiqish.....	1099
Raximov Dilshodjon Turdiali o'g'li	
Ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	1104
Karimova Komila Daniyarovna	
Ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi.....	1111
I.G'.Isroilov	
Выведение практического сотрудничества на качественно новый уровень государств центрально-азиатского региона в укреплении концепции «зеленой экономики» в эпоху глобализации.....	1117
Парпиева Наргиза Тахировна	
Kimyo sanoati korxonalarida lean production konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari	1122
Gulbayeva Feruza Islomovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida auditorlik xizmatlarining ahamiyati.....	1127
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari	1131
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini	1194
Turopov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
"Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi" faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi.....	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi.....	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash.....	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish.....	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish.....	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari.....	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ibratovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes sub’ektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish.....	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	



KICHIK BIZNES SUB'EKTLARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Akbarov Abdulhamid Akmal o'g'li

Andijon davlat texnika instituti tayanch doktoranti

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o'qituvchisi

ORCID: 0000-0002-6478-8293

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizlik darajasini aniqlash, mavjud muammolarni tahlil qilish va takomillashtirilgan mexanizmlarni ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot ob'ekti sifatida Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari tanlab olindi. Ushbu hududiy tanlov kichik biznes subyektlari uchun xos bo'lgan muammolarni joyida o'rganish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Kichik biznes, iqtisodiy xavfsizlik, infratuzilma, empirik tahlil, Delphi tahlil, raqamli texnologiyalar.

Abstract: This research aims to determine the economic security level of small business entities, analyze existing problems, and develop improved mechanisms. The research focuses on small business entities operating in the Andijan region. This regional selection allows for the study of issues specific to small businesses on-site, providing an opportunity to develop recommendations based on the social-economic realities.

Key words: Small business, economic security, infrastructure, empirical analysis, Delphi analysis, digital technologies.

Аннотация: Данное исследование направлено на определение уровня экономической безопасности субъектов малого бизнеса, анализ существующих проблем и разработку усовершенствованных механизмов. Объектом исследования стали субъекты малого бизнеса, осуществляющие свою деятельность в Андижанской области. Такой региональный выбор позволяет изучить проблемы, характерные для малого бизнеса на местах, а также разработать рекомендации, основанные на социально-экономической реальности.

Ключевые слова: Малый бизнес, экономическая безопасность, инфраструктура, эмпирический анализ, метод Делфи, цифровые технологии.

KIRISH

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari zamonaviy iqtisodiyotda iqtisodiy o'sish, ish o'rnlari yaratish va innovatsiyalarni kengaytirishda muhim o'rin tutadi. Ayni paytda, ularning faoliyatida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Kichik biznes subyektlari ko'pincha yuqori risk darajasiga ega bo'lgan tashqi va ichki tahdidlarga duch keladi. Ular orasida global makroiqtisodiy o'zgarishlar, moliyaviy bozorlarning beqarorligi, geosiyosiy notinchliklar, raqamli xavf-xatarlar, soliq-burilish siyosatlaridagi keskinliklar, tabiiy ofatlar va pandemiyalar kabi omillar mavjud. Bunday sharoitda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash kichik biznes subyektlari uchun nafaqat moliyaviy barqarorlikni, balki resurslarga barqaror kirish, samarali boshqaruv, tashqi tahdidlarga qarshi moslashuvchanlikni anglatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi turli ilmiy yo'nalishlarda o'rganilgan bo'lsa-da, kichik biznes kontekstida bu tushunchaning tizimli yondashuv asosida chuqur tahlili yetarlicha amalga oshirilmagan. Klassik iqtisodiy



nazariyalarda iqtisodiy xavfsizlik ko'proq milliy darajadagi strategik omil sifatida ko'rilgan. Iqtisodchi olimlar Arefiyeva va Kuzmenko tadbirkorlik sohasida iqtisodiy xavfsizlik tushunchasini korxona resurslaridan samarali foydalanish holati hamda tashqi va ichki tahdidlarning oldini olish, uzoq muddat bozorda yashab qolish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga imkon beradigan bozor potensialidan kelib chiqqan holda belgilaydilar. [1]

Iqtisodchi olim P.Xoshimov o'zining ilmiy qarashlarida "Tadbirkorlik faoliyati xavfsizligi deganda, tadbirkorlik faoliyati subyekti amal qilishining barcha bosqichlarida, birinchi navbatda, iqtisodiy, huquqiy va boshqa salbiy oqibatlariga olib keluvchi ichki va tashqi tahdidlardan muhofaza qilinganligini tushunish lozim" deya ta'rif keltirgan. [2]

Iqtisodchi olimlar B.Tursunov va boshqalar tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy xavfsizligiga "tadbirkorlik subyekti tomonidan amalga oshirilgan huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy-iqtisodiy va injener texnik tavsifdagi chora-tadbirlar tizimi tufayli vujudga keltirilgan hayotiy muhim iqtisodiy manfaatlarining ichki va tashqi xavf-xatarlardan himoyalanganlik holatidir", deb ta'rif berganlar. [3] Olima F.Bayboboyeva o'z ilmiy ishlarida "kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy xavfsizligi, barcha mulklarning maqbul nisbatiga asoslanib, sub'yektning barqaror ishlashiga, qiyinchiliklar va tahdidlarga munosib javob berishga, rivojlanish va takomillashtirish imkonini beradi" deya ta'kidlagan. Shu nuqtayi nazardan tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy xavfsizligi har doim muhim ahamiyatli, shuningdek, hozirgi globallashtirish sharoitida doimiy ravishda yangilanib turuvchi strategiyalarga asoslangan bo'lishi zarurdir. [4]

OECD [5], UNIDO [6] va Jahon banki [7] tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda kichik biznes xavfsizligiga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlar sifatida kredit resurslariga kirish, raqamli infratuzilma mavjudligi, huquqiy-muammoli muhit, innovatsion salohiyat, kadrlar tayyorgarligi, davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi ko'rsatib o'tilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarda kompleks metodologik yondashuv, xususan, raqamli transformatsiya, ekspert baholari va strategik tahlil vositalarining uyg'unlashtirilgan modeli yetarlicha ishlab chiqilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda aralash metodlar asosidagi yondashuv qo'llanildi. Mazkur uslub muammoga ko'p qirrali, chuqur va tizimli baho berish imkonini beradi:

1. Empirik bosqichda Andijon viloyatidagi 120 ta kichik biznes subyekti o'rtasida tuzilgan maxsus savolnoma orqali ma'lumotlar yig'ildi. Savolnomada iqtisodiy xavfsizlikka oid moliyaviy barqarorlik, raqamli infratuzilma, boshqaruv darajasi, xodimlar malakasi, davlat yordamidan foydalanish, xavflarni boshqarish salohiyati kabi omillar qamrab olindi.

2. Sifat tahlili bosqichida 15 nafar sohaga oid ekspertlar – moliyachilar, kichik biznes vakillari, tarmoq infratuzilmasi mutaxassislari, davlat idoralari vakillari bilan yarim strukturaviy intervyular o'tkazildi.

3. Statistik tahlil usullaridan quyidagilar qo'llandi:

- Klaster tahlil yordamida kichik bizneslar xavfsizlik darajasi bo'yicha guruhlashtirildi;
- Faktorial tahlil orqali iqtisodiy xavfsizlikka eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omillar ajratib olindi;
- Delphi usuli yordamida ekspert baholari asosida strategik tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan kompleks tahlillar natijalariga asoslanib, kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizlik holatini ko'p omilli yondashuv asosida baholash imkonini beruvchi muhim empirik ma'lumotlar aniqlandi. Jumladan, respondentlar orasida o'tkazilgan so'rovnomaga va statistik ma'lumotlar tahlili asosida quyidagi asosiy natijalarga erishildi.

Birinchiidan, kichik biznes subyektlarining 62 foizi o'z faoliyatining moliyaviy holatini zaif yoki beqaror deb baholagan. Bu ko'rsatkich kichik biznes sektori uchun moliyaviy barqarorlik muammosi o'sish sur'atlari va investitsion jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini anglatadi (1-jadval).

1-jadval. Kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizlik holatini baholovchi statistik ko'rsatkichlar.

Ko'rsatkichlar	Natijalar (%)
Moliyaviy holatini zaif deb baholagan subyektlar ulushi	62%
Raqamli infratuzilmadan muntazam foydalanuvchi subyektlar ulushi	18%
Davlat yordamidan foydalanuvchi subyektlar ulushi	39%
Davlat yordamida to'siqlarni (byurokratiya, huquqiy chalkashlik) bildirganlar	Ha (ko'pchilik)
Infratuzilma va malakali kadrlar yetishmasligini xavf deb bilganlar	Asosiy omil



Ikkinchidan, tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli infratuzilmadan tizimli va muntazam foydalanayotgan subyektlar ulushi atigi 18 foizni tashkil qilgan. Bu esa, kichik biznes faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi yetarli emasligini, va bu omil ularning iqtisodiy xavfsizligiga jiddiy xavf tug'dirayotganini ko'rsatadi. Bunda axborot texnologiyalari bo'yicha bilimlar yetishmovchiligi, texnik ta'minotdagi kamchiliklar va zamonaviy raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatining cheklangani muhim rol o'ynaydi.

Uchinchidan, infratuzilma va inson kapitali, ya'ni malakali kadrlar salohiyati yetishmasligi kichik biznes subyektlari tomonidan asosiy xavf omillari sifatida e'tirof etilgan. Ushbu ikki omilning uyg'un rivojlanmasligi nafaqat ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga, balki tashqi zarbalarni bartaraf etish imkoniyatlarining susayishiga ham olib keladi.[8] Shu boisdan, kichik biznesning iqtisodiy xavfsizligi infratuzilmaning holati va inson resurslari sifatiga bevosita bog'liq bo'lmoqda.

To'rtinchidan, davlat tomonidan taqdim etilayotgan yordam choralaridan foydalanayotgan kichik biznes subyektlarining ulushi 39 foizni tashkil etadi. Shuningdek, amalga oshirilgan klaster tahlili kichik biznes subyektlarini iqtisodiy xavfsizlik darajasiga ko'ra uchta asosiy guruhga ajratish imkonini berdi. Birinchi guruh – yuqori xavfsizlik darajasiga ega subyektlar (21%) odatda, moliyaviy barqarorlikka ega bo'lib, davlat tomonidan taqdim etilgan qo'llab-quvvatlov dasturlaridan foydalangan, va eng asosiysi, raqamli texnologiyalarni faol joriy etgan subyektlardir. Ikkinchi guruh – o'rtacha xavfsizlik darajasiga ega subyektlar (48%) vakillari moliyaviy jihatdan nisbatan barqaror, biroq ularning infratuzilmaviy ta'minoti yoki boshqaruv kompetensiyasi nuqtai nazaridan zaiflik mavjud. Uchinchi guruh – zaif xavfsizlik darajasiga ega subyektlar (31%) texnologik infratuzilmaning yetishmovchiligi, kredit resurslariga kirish imkoniyati yo'qligi hamda inson kapitalining past darajasi bilan ajralib turadi (2-jadval).

2-jadval. Klaster tahlil asosida kichik biznes subyektlarining xavfsizlik darajasiga ko'ra tasnifi.

Guruh nomi	Ulushi (%)	Xususiyatlari
Yuqori xavfsizlikdagi subyektlar	21%	Moliyaviy barqaror, raqamli texnologiyalardan foydalanuvchi, davlat yordam olgan
O'rtacha xavfsizlikdagi subyektlar	48%	Moliyaviy o'rtacha, lekin infratuzilma yoki boshqaruv zaif
Zaif xavfsizlikdagi subyektlar	31%	Texnologik zaiflik, kredit resurslariga kira olmaslik, bilim salohiyati past

Ushbu guruh vakillari iqtisodiy zarbalarga nisbatan eng zaif qatlam hisoblanadi va ularga nisbatan maxsus qo'llab-quvvatlash strategiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tahliliy xulosalar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashda kompleks yondashuvni, hududiy, texnologik va institutsional farqlarni hisobga olgan holda strategik choralar ishlab chiqishni taqozo etadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni tasdiqladiki, kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligi masalasiga faqatgina an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar asosida yondashish yetarli emas. Mazkur subyektlarning iqtisodiy barqarorligini ishonchli baholash va ta'minlash uchun kompleks va tizimli yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy moliyaviy tahlil usullari, odatda, kichik biznes faoliyatida yuzaga keladigan xavf-xatarlarning faqat moliyaviy jihatlarini aniqlashga xizmat qiladi.[9] Biroq amaliy holatlar shuni ko'rsatmoqdaki, bunday yondashuvlar ko'plab noaniq va yangi turdagi xavf omillarini, xususan, raqamli tahdidlar, axborot xavfsizligi, boshqaruv salohiyati, infratuzilmaviy yetuklik darajasi, tashqi axborot muhiti bilan integratsiyalashuv darajasi kabi mezonlarni qamrab olmaydi. Ushbu omillar zamonaviy iqtisodiy xavfsizlik paradigmasida muhim indikatorlar sifatida e'tirof etilmoqda.

Tadqiqot doirasida Delphi usulidan foydalangan holda o'tkazilgan ekspert so'rovlari natijalari kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashda bir qator strategik yondashuvlarning zarurligini ko'rsatdi. Xususan, ekspertlar tomonidan hududiy differensial yondashuv asosida iqtisodiy xavfsizlikni baholash, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga erkin va keng ko'lamli kirish imkoniyatlarini ta'minlash, malakali kadrlar salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish, shuningdek, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan qo'llab-quvvatlov dasturlarining shaffofligini oshirishga oid takliflar ilgari surildi. Ayni paytda, postpandemiya davrida yuzaga kelgan yangi iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar kichik biznes subyektlarining barqaror faoliyat yuritishi uchun yangicha yondashuv va vositalarni qo'llash zaruratini yuzaga chiqarmoqda.[10] Mazkur holat o'z navbatida, xavfsizlik mezonlarini qayta ko'rib chiqish va ularni zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga moslashtirishni talab etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga doir yondashuvlar har tomonlama diversifikatsiyalashgan, soha xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ixtisoslashgan, hamda raqamli transformatsiya jarayonlariga moslashtirilgan bo'lishi lozim. Natija



kichik biznesning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladigan institutsional va infratuzilmaviy shart-sharoitlarni takomillashtirish bilan chambarchas bog'liqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun tizimli, ko'p omilli yondashuv zarur. Ushbu tadqiqot asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Kichik biznes xavfsizligini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda boshqaruv, infratuzilma, raqamli tayyorgarlik, davlat yordami samaradorligi kabi omillarni birlashtirgan indikator tizimi joriy etilishi kerak;
- Raqamli infratuzilmaga kirishni kengaytirish va kiberxavfsizlikni oshirish kichik biznesni zamonaviy tahdidlardan himoya qilishda muhim omil bo'ladi;
- Moliyaviy savodxonlik, soliq rejalashtirish, risklarni aniqlash va boshqarish bo'yicha kichik biznes egalari uchun muntazam treninglar o'tkazilishi zarur;
- Kichik biznes subyektlariga mo'ljallangan hududiy strategik xavfsizlik platformalari yaratilishi lozim;
- Ekspertlar bahosiga asoslangan Delphi modelidan foydalanib, kichik biznes uchun moslashtirilgan xavfsizlik strategiyalari ishlab chiqish foydali natijalar beradi. Taklif etilgan kompleks model kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashga, ularni raqobatbardosh va innovatsion subyektlarga aylantirishga xizmat qiladi. Natija esa, o'z navbatida, hududiy iqtisodiyot barqarorligiga va mamlakat miqyosidagi umumiy iqtisodiy xavfsizlikka hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Arefieva, O.V., Kuzenko, T.B. (2005) Planuvannia ekonomichnoi bezpeky pidpriemsv (Planning of enterprise security). Vyd-vo Yevrop. un-tu, Kyiv 24-27-p
2. Хошимов П.З. (2015). Тадбиркорликнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш концепцияси ва тизими. "Иқтисод ва молия" илмий журнали. –Т.: 11. 24-6
3. Tursunov B.O., Uktamov X.F., Sobirova M.N. (2022) Xavfsizlik va texnologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent. TDIU, -230 b.
4. Байбобоева, Ф. (2020). Тадбиркорлик фаолияти иқтисодий хавфсизлиги тушунчасининг моҳияти ва намоён бўлиш шакллари. Экономика и инновационные технологии, (3), 180-186.
5. SME and Entrepreneurship Outlook. Paris: OECD Publishing. OECD (2021).
6. Industrial Development Report: The Future of Industrialization in a Post-Pandemic World. UNIDO (2022).
7. Doing Business and SME Resilience Indicators. World Bank (2023).
8. Эрматов, Акмалжон Адхамович, and А. Акбаров. "Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятида иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг ўзига хос жиҳатлари." Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar (2021).
9. Akbarov, A., and M. Ermatov. "Tadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari va ularni baholash usullarining tahlili. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 2 (5), 19–25." 2024
10. Akbarov, A., & Ahrorqulov, J. (2024). Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(11).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>